

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSINI O'QITISHDA DIDAKTIK O'YINLAR

Kurtbayeva Ogulsapdi Xemra gizi
NDPI Boshlang'ich ta'lim fakulteti
2-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o'qitishda qo'llaniladigan metodlar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, didaktik o'yinlar, „Besh barmoq“metodi, o'qituvchi,o'quvchi.

Ona tilini o'qitishda o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi faoliyatini tashkil etish shakllari,metodlari va usullari ta'lim tizimining takomillashuvi bilan,bog'liq holda rivojlanib, yangilanib bormoqda.

Shuningdek, XX asrning oxirgi yillariga qadar o'qitish metodlari sifatida tushintirish-bayon metodi,besh barmoq metodi,suhbat metodi,mustaqil ish metodi, analiz-sintez metodi,induktiv va deduktiv metodlar ona tili darslarini tashkil qilishda, o'qitishda ko'proq qo'llanib kelingan. Hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalarning rivojlanib borayotgani tufayli, ta'limda ko'pgina o'zgarishlar bo'lmoqda. Darslarning samarali o'tishida didaktik o'yinlarning ahamiyati katta.Masalan: „Aqliy hujum“, „Kungaboqar“, „Sayabon“, „Besh barmoq“, „Quyosh“, „Zanjir“, „BBB“, „Kim chaqqon“, „Qor parchasi“, „Olma daraxti“, „Klaster“ va boshqa metod qo'rnishlari ko'pdir.[3.140.] Bu metodlarni hamma fanlarda qo'llansa bo'ladi, faqat o'qituvchining ishchanlik qobiliyatiga bo'g'liq bo'ladi.

Didaktik o'yinlar musiqa ta'limi mazmunini oydinlashtirishning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.Asosan, boshlang'ich sinflarda texnologiya soatlarini ko'paytirilsa yaxshi bo'lardi, bunga sabab nima? deb o'ylashingiz mumkin. Chunki texnologiya darsida ular rangli qalam, rangli qog'ozlar,chizg'ich, qaychi va boshqa asboblardan foydalangan holda darsda har hil shakllar yasaydilar va bunday ishga o'quvchilar o'z ijodlari orqali bor mahoratlarini ishga tushiradilar yanada axshiroq o'rganadilar. Yosh bolalar ko'pincha ko'rgan narsalarini yodlab qoladilar.Bu bilan aytmoqchimanki, ushbu predmet usti bilan o'quvchilarni kasbga yo'naltirilib bo'riladi. O'quvchilarning yaratuvchanligi epchilligi orqal shakllanib boraveradi.[1.133]

Didaktik o'yin bu – ta'lim beruvchi usul bo'lib, muayyan ta'limiy maqsadlarga erishishga ya'ni o'quv materialini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan ta'lim usuli. Har bir didaktik o'yinni o'tkazishda muayyan bir maqsad va vazifa qabul qilinib o'linadi. Masalan: ona tili nazariyasi misollar o'yinda ona tili savodini mustahkamlashdan iborat bo'lgan didaktik topshiriq qoyiladi

. Didaktik topshiriq ona tili darsiga qo'yiladigan umumiy maqsadlarning bir qismini tashkil qiladi. Har bir didatik o'yinning ham, har qanday o'yindagi singari qoidalari bo'ladi. O'sha qoidalarga amal qilinmasa o'yinning o'yin sifatidagi ahamiyatli binobarin o'yinning ona tili ta'lim tarbiyaviy va psixologik ahamiyati yo'qoladi. O'yin qo'idalari o'yin topshirig'iga kiritiladi. O'yin topshirig'i-ona tili o'qituvchining bolalarga o'yinning qanday o'ynalishini, kim g'olibligini aniqlashdan iborat. Masalan Ona tili darslarida qollaniladigan o'yinlar ham oz emas. Masalan:

“Besh barmoq” o'yinni[1.77]

O'yinning maqsadi: Berilgan mavzu bo'yicha matnni mustahkamlash

O'yin jihozlari: qalam, qog'oz, besh barmoq

O'yin tartibi: Har bir o'quvchi berilgan qog'ozga besh barmog'ini chizadi, keyin bosh barmoqqa kim? , qorsatkich barmoqqa Nima? O'rtancha barmoqqa Qayer? Keyingi kichkina barmoqqa Qachon? Degan savollarni yozadilar va berilgan matn asosida bu savollarga javob topadilar. Oxirgi qichkina barmoqni mana shu tortta barmoqda keltirilgan javoblar orqli toldiriladi yani, mana shu so'zlar umumlashtirilib xulosa chiqariladi va so'zlardan gap hosil qilinib yoziladi .

Bu metod darsimizni qiziqarli va samarali o'tishga yordam beradi, o'quvchilarning miyasining yaxshi ishlashiga chaqqon bolishiga boshlaydi va berilgan mavzudagi tekstni mustahkamlashga va takrorlashda qo'llanilsa bo'ladi. Tekstning ichidagi eng kichik materiallarni ham yodlashga yordam beradi. Asosanda o'quvchilar bu metodda faqatgina savol javob bilan qolmay, rasm ham chizib bo'radilar. Bu metodni har qanday vaziyatda va hamma predmetlarda qollansa bo'ladi.[3.21.]

Analiz -sintez metodida ham o'quvchilarni faollashtirish o'qituvchining o'quvchilarga beradigan savol va topshiriqlariga , ishni tashkil etish shakillariga bog'liq bo'ladi.

Induksiya metodida o'quvchilar o'qituvchi tavsiya etgan til dalillarini kuzatadi, tahlil qiladi va shu asosda xulosa va ta'riflar keltirib chiqaradi.

Diduksiya metodida o'quvchi tayyor qoida-ta'rif bilan tanishadi va uning mohiyatini til dalillarini asosida ochadi.

Bu metodlarning samarasi o'qituvchining savol-topshiriqlari mazmuni grammatik hodisaning muhim tomonlariga yo'naltirilganligiga , izchilligiga, faoliyatini tashkil etish shakillariga , o'quv vositalari (darslik, turli xarakterdagi lug'atlar, rasm, jadvallar, texnikvositalar) ga bog'liq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi barcha metodlarning muvaffaqiyati o'qituvchining beradigan savol-topshiriqlariga bog'liq. Yo'l - yo'lakay duch kelgan savollar bilan kichik yoshdagi o'quvchining anglash faoliyatini ishga solish kutilgan natijani bermaydi.

So‘nggi yillar davomida ta‘lim tizimiga an‘anaviy metodlar bilan birga zamonaviy pedagogik texnologiya usullari kirib keldi. Ulardan ona tili ta‘limi jarayonida foydalanish bo‘yicha yutuqlar qolga kiritildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov O‘, M. Usmonboyeva, Pedagogika texnologiya nazariya va amaliyoti . T . 2015.
2. M.Xudoyberganova, M.Muxtorova, 3-sinfda ona tili darslari T., O‘qituvchi“2005
3. R.Qosimova, S.Fuzailov, A.Ne‘matova, Ona tili (2-sinf uchun darslik) T.Cho‘lpon 2005.
4. Internet. uz